



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 356 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
Masharipova Kumushoy Amin qizi	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
Mavlonova Dildora Shukhrat kizi	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
Rajabova Shaxlo Shodmonovna	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
Ramazonova Salomat Saidovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
Saidova Gulruh Halim qizi	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
Истамова Нигора Азимжановна	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
Xakimova Dildora Mashrabjonovna	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна	
Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida	257
Rashidova Gulnoza G'ulomovna	
Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati	261
Xaydarov Sulaymon Amirqulovich	
Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar	265
Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li	
Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari	268
Abduraximov Asror Sultonali o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	271
Adizova Nilufar Quvondiq qizi	
Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati	274
Alimov Asadulla Urokbayevich	
Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri	278
Alimova Umida Jumaboy qizi	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi	282
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi	286
Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish	289
Islomova Xafiza Azamatovna	
Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish	293
Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi	
Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri	298
Kozimova Nargiza Istam qizi	
Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili	303
Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna	
Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv	309
Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi	



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari	313
Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi	
Poshshoxo'ja Ibn Abduvahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari	317
Muzaffarova Farida Muxtor qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari	321
Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi	
Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi.....	324
Ramazonov Jahongir Djalolovich	
Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar	328
Sadinov Otabek Vaxodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri.....	332
Shahobiddinova Zilola Orif qizi	
Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri	335
Shirinov Otabek Tuvalovich	
Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish.....	338
Suyarov Kusharbay Tashbayevich	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati	342
Saipova Hilola Abduhamitovna	
"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun.....	346
Tangirov Zoir Xo'jakulovich	
Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi.....	350
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	
Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'alarining uzluksiz rivojlanishi ..	353
Seytanov Bayrambay	

AXLOQSHUNOSLIKNING GLOBAL MUAMMOLARI VA TEXNIKAVIY MUHITNING INSON HAYOTIGA TA'SIRI

Kozimova Nargiza Istam qizi

P. P. Benkov nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan san'at maktabi
"Etika va estetika" fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola texnika va raqamli muhitning jadallashuvi natijasida yuzaga kelayotgan global axloqiy muammolarni tahlil qiladi. Bir tomondan, texnika estetikasining (dizayn, interfeys, mehnat va turmush go'zalligi) kundalik hayotga chuqur singib borishi, ikkinchi tomondan esa algoritmik boshqaruv, kuzatuv kapitalizmi, ma'lumotlar suvereniteti, sun'iy intellekt hamda avtomatlashtirishning normativ oqibatlari yoritiladi. Tadqiqot Hans Yonasning mas'uliyat etikasi, Langdon Vinnerning "artefaktlarning siyosati", Jak Ellulning "texnika avtonomiyasi", Shoshanna Zuboffning kuzatuv kapitalizmi, Luchano Floridining axborot etikasi hamda UNESCO va IEEE me'yoriy hujjatlariga tayangan holda konseptual yondashuvni taklif etadi. Maqolada, shuningdek, o'zbek estetika maktabi doirasida texnika estetikasining ijtimoiy-ma'naviy vazifalari ham muhokama qilingan. Natijada "Mas'uliyat – Dizayn – Boshqaruv" (MDB) triadasi integrativ model sifatida ilgari surilgan: (1) uzoq oqibatlarga yo'naltirilgan mas'uliyat etikasi, (2) qadriyatga yo'naltirilgan dizayn va texnika estetikasining uyg'unligi, (3) ma'lumotlar va algoritmlarni boshqarishda adolat va hisobdorlik tamoyillari. Ushbu ramka individual xulq-atvor, tashkilot siyosatlari va davlat me'yorlarida qo'llanishi mumkin. [Sher, 2007–217]; [Jonas, 1984–11]; [Winner, 1980–121]; [Ellul, 1964–133]; [Zuboff, 2019–13]; [Floridi, 2005–189]; [IEEE, 2018–27]; [UNESCO, 2021–7].

Kalit so'zlar: Texnologiya etikasi; axloqshunoslik; texnika estetikasi; mas'uliyat etikasi; kuzatuv kapitalizmi; axborot etikasi; sun'iy intellekt; algoritmik adolat; dizayn; raqamli boshqaruv.

Abstract: This article analyzes the global ethical challenges arising from the acceleration of technology and digital environments. On the one hand, it explores the deep penetration of techno-aesthetics (design, interface, labor, and lifestyle aesthetics) into everyday life; on the other, it examines the normative consequences of algorithmic governance, surveillance capitalism, data sovereignty, artificial intelligence, and automation. The study builds on Hans Jonas's ethics of responsibility, Langdon Winner's "politics of artifacts," Jacques Ellul's "autonomy of technology," Shoshana Zuboff's surveillance capitalism, Luciano Floridi's information ethics, and UNESCO/IEEE regulatory frameworks. Within the scope of the Uzbek school of aesthetics, the social and moral functions of techno-aesthetics are also discussed. As a result, an integrative model – the "Responsibility – Design – Governance" (RDG) triad – is proposed: (1) long-term oriented ethics of responsibility, (2) value-oriented design and techno-aesthetic harmony, and (3) principles of justice and accountability in the governance of data and algorithms. This framework can be applied at the levels of individual conduct, organizational policies, and state regulations. [Sher, 2007–217]; [Jonas, 1984–11]; [Winner, 1980–121]; [Ellul, 1964–133]; [Zuboff, 2019–13]; [Floridi, 2005–189]; [IEEE, 2018–27]; [UNESCO, 2021–7].

Key words: Ethics of technology; ethics; techno-aesthetics; ethics of responsibility; surveillance capitalism; information ethics; artificial intelligence; algorithmic justice; design; digital governance.

Аннотация: В данной статье анализируются глобальные этические проблемы, возникающие в результате ускоренной цифровизации и технического прогресса. С одной стороны, рассматривается проникновение техноэстетики (дизайн, интерфейс, эстетика труда и быта) в повседневную жизнь, с другой стороны – нормативные последствия алгоритмического управления, капитализма наблюдения, суверенитета данных, искусственного интеллекта и автоматизации. Исследование опирается на этику ответственности Ханса Йонаса, "политику артефактов" Лэнгдона Виннера, "автономию техники" Жака Эллуля, концепцию капитализма наблюдения Шосанны Зубофф, информационную этику Лучано Флориди, а также на нормативные документы UNESCO и IEEE. В статье обсуждается социально-нравственная роль техноэстетики в рамках узбекской эстетической школы. В результате предложена интегративная модель "Ответственность – Дизайн – Управление" (ОДУ): (1) этика ответственности, ориентированная на долгосрочные последствия; (2) ценностно-ориентированный дизайн и гармония техноэстетики; (3) справедливость и подотчетность в управлении данными и алгоритмами. Данная рамка может применяться на уровне индивидуального поведения, организационной политики и государственных норм. [Sher, 2007–217]; [Jonas, 1984–11]; [Winner, 1980–121]; [Ellul, 1964–133]; [Zuboff, 2019–13]; [Floridi, 2005–189]; [IEEE, 2018–27]; [UNESCO, 2021–7].

Ключевые слова: Этика технологий; этика; техноэстетика; этика ответственности; капитализм наблюдения; информационная этика; искусственный интеллект; алгоритмическая справедливость; дизайн; цифровое управление.



KIRISH

XXI asrda texnologik rivojlanish inson hayotini yangi me'yorlarga moslashishga majbur qilmoqda: ish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, mobil va "aqlli" qurilmalar orqali doimiy tarmoqlanish, ma'lumotlarning ommaviy yig'ilishi hamda qaror qabul qilish jarayonining algoritmlashuvi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ontologik (kimmiz?), epistemik (nima bilamiz?) va normativ (nima qilishimiz kerak?) savollarni ham keskinlashtiradi. Ularni axloqiy jihatdan tushuntirishga ikkita ko'zoynak kerak:

- 1) axloqshunoslik (etik) tamoyillari;
- 2) texnika estetikasining kundalik hayotga singishi.

Texnika estetikasining vazifasi – ishlab chiqarish vositalari, interfeyslar, ish joylari, shahar makoni va uy xo'jaligidagi buyumlar ko'rinishi orqali nafaqat qulaylik, balki ma'naviy didni ham shakllantirishdir. "Kecha 'temir-tersak' bo'lib ko'ringan narsa bugun go'zallik manbai bo'lishi" dizaynning estetik-tarbiyaviy kuchini anglatadi [Sher, 2007–217].

Bu yondashuv estetikani axloqiylik bilan qarindosh fan sifatida ko'radi: ko'plab qadimiy manbalarda "ichki go'zallik – axloq", "tashqi go'zallik – nafislik" uyg'unligi ta'kidlangan [Sher, 2007–12].

Biroq texnikaviy muhit faqat go'zallik bilan cheklanmaydi. Hans Yonas taklif etgan mas'uliyat etikasi "amallarimiz oqibatlarini haqiqiy inson hayoti barqarorligiga mos bo'lsin" degan kategorik talabni qo'yadi [Jonas, 1984–11]. Langdon Vinner "artefaktlarning siyosati"ni tahlil qilib, texnik tizimlar hukmronlik va tengsizlikni ishlab chiqishi yoki mustahkamlashi mumkinligini ko'rsatadi [Winner, 1980–121]. Jak Ellul esa "texnika avtonomiyasi"ni – samaradorlik me'yorlari insoniy maqsadlarni siqib chiqaradigan holatni – 60 yildan beri ogohlantirib keladi [Ellul, 1964–133].

Shu manzarada axloqiy muammolar global tus oladi: ma'lumotlar maxfiyligi, kuzatuv iqtisodiyoti, algoritmik diskriminatsiya, mehnatning raqamli ekspluatatsiyasi, psixologik salomatlikka ta'sirlar, ekologik "ko'rinmas iz". Bularni yechishda axborot etikasi (Floridi), kuzatuv kapitalizmi tanqidi (Zuboff) hamda UNESCO/IEEE tamoyillari kabi me'yoriy yondashuvlar muhim yo'l-yo'riq beradi [Floridi, 2005–189]; [Zuboff, 2019–13]; [IEEE, 2018–27]; [UNESCO, 2021–7].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mas'uliyat etikasi va uzoq oqibatlar

Yonas texnik qudratning ekologik va trans-avlod oqibatlarini e'tiborga oluvchi yangi etik imperative taklif qiladi: "harakatlarimiz natijalari haqiqiy inson hayoti davomiyligiga mos bo'lsin" [Jonas, 1984–11]. Bu prinsip sun'iy intellekt, bioinjeneriya va infratuzilma dizaynida ehtiyotkorlik ("precaution") yondashuvini talab qiladi.

Artefaktlar siyosati

Vinner texnik obyektlarning ijtimoiy taqsimotga bevosita ta'sirini ko'rsatadi: yo'l ko'priklari balandligidan tortib ishlab chiqarish liniyalarigacha, dizayn qarorlari siyosiy oqibatlarni keltiradi [Winner, 1980–121]. Bu qarash bugungi algoritmik boshqaruv sharoitida – masalan, kredit reytinglari, qimmat baholash tizimlari, yuzni tanish – yanada dolzarb.

Texnika avtonomiyasi va samaradorlik me'yorlari

Ellulga ko'ra, texnika "avtonomiya", "o'zini-o'zi ko'paytirish", "texnik tanlovning avtomatizmi" kabi xususiyatlar orqali jamiyatni samaradorlik me'yorlariga bo'ysundiradi [Ellul, 1964–133]. Bu qarash bugungi platforma iqtisodiyotida "o'lcha, test qil, optimallashtir" mantiqida ko'rinadi.

Axborot etikasi

Floridi axborot mavjudot (inforg) konsepsiyasidan kelib chiqib, shaxsni "axboriy o'zlik" sifatida himoya qilish zarurligini asoslaydi; "axborotiy maxfiylik" shaxsiy hayotdan ko'ra kengroq tushuncha bo'lib, axborot oqimlari ustidan axloqiy nazoratni talab qiladi [Floridi, 2005–189].

Kuzatuv kapitalizmi

Zuboff "xulq-atvor ortiqchasi"ni tijoratlashtirishni raqamli kapitalizmning markaziy mexanizmi deb ta'riflaydi; bu "instrumentar kuch" orqali inson xulqini bashorat qilish va shakllantirishga intiladi [Zuboff, 2019–13].

Me'yoriy va siyosiy doiralar

IEEE "Etikaga moslangan dizayn" (EAD) tashabbusi A/IS (Autonomous and Intelligent Systems) tizimlari inson farovonligini ustuvor qilish, adolat, hisobdorlik va izohlanish (explainability) tamoyillarini ilgari suradi



[IEEE, 2018–27]. UNESCOning 2021-yildagi AI etikasi bo'yicha tavsiyasi esa a'zo davlatlarni AI hayotiy siklining barcha bosqichlarida inson huquqlariga sodiqlik va ekologik barqarorlik tamoyillarini joriy etishga chaqiradi [UNESCO, 2021–7].

Kompyuter qudrati va inson qarori

Vayzenbaum 1970-yillarda kompyuterlar “ustaga aylanib qolish” xavfini eslatib, ma'lum qarorlar sohalari mas'uliyat va insoniy mulohaza talab qilishini uqtirgan edi [Weizenbaum, 1976–11].

O'zbek estetika maktabi va texnika estetikasining roli

O'zbek ilmiy-didaktik an'analarda texnika estetikasining tarbiyaviy vazifasi – ishlab chiqarish, turmush va sportdagi go'zallik orqali estetik didni shakllantirish – alohida ta'kidlanadi [Sher, 2007–217; 2007–225; 2007–222].

Bu yondashuv estetikani axloqiylik bilan “et va tirnoq”dek yaqin aloqada ko'radi [Sher, 2007–251].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma'lumotlar yig'ish jarayonida asosan kontent-tahlil va adabiyotlarni tizimli sharhlash usulidan foydalanildi. Hans Yonas, Langdon Vinner, Jak Ellul, Shoshanna Zuboff va Luchano Floridi kabi olimlarning ilmiy qarashlari, shuningdek, UNESCO va IEEE kabi xalqaro tashkilotlarning me'yoriy hujjatlari asosiy manba sifatida tanlandi. Shuningdek, o'zbek estetika maktabi doirasidagi ilmiy ishlanmalar ham qo'shimcha asos bo'ldi. Olingan manbalar tematik yo'nalishlar bo'yicha guruhlandi va ularning asosiy konseptual yondashuvlari solishtirildi. Tahlil jarayonida qiyosiy metod, konseptual umumlashtirish va mantiqiy xulosalar chiqarish usullaridan foydalanildi. Natijada global axloqiy muammolarni texnika estetikasining ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati bilan uyg'unlashtiruvchi ilmiy model ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Global axloqiy muammolar: strukturali ko'rinish

1.1. Ma'lumotlar suvereniteti va maxfiylik

Ma'lumotlar milliy chegaralarni kesib o'tadi; fuqarolarning shaxsiy axboroti global platformalar qo'lida to'planadi. Floridi ta'kidlaganidek, bu yerda “axboriy o'zlik”ni himoya qilish – shunchaki “maxfiylik” emas, balki axboriy integralitet masalasi [Floridi, 2005–189]. Zuboff nazariyasiga ko'ra, foydalanuvchi xulqidan olinadigan “ortiqcha” algoritmik bashoratlar va rag'batlar orqali tijoratlashtiriladi [Zuboff, 2019–13]. Bu mexanizm axloqiy agentlikni bo'shatishi, ong osti darajasidagi “nudging” orqali xohishlarni qayta shakllantirishi mumkin.

1.2. Algoritmik adolatsizlik va siyosiy oqibatlar

Vinner tilga olganidek, texnik obyektlar – bugun algoritmlar – siyosiy oqibatlar tug'diradi [Winner, 1980–121]. Kredit reytinglari, ishga qabul qilish tizimlari, ijtimoiy sug'urta risk skorlari tarixiy tarafkashliklarni ko'paytirishi mumkin. Bu nafaqat “adolat” masalasi, balki fuqarolik huquqlari muammosi hamdir.

1.3. Texnika avtonomiyasi va ehtiyotkorlik

Ellulning “avtonomiya” tashxisi – samaradorlikni mutlaq qadriyatga aylantirish – bugungi AI'da “tezroq ishga tushir, keyin tuzat” mentalitetida namoyon bo'ladi [Ellul, 1964–133]. Yonascha mas'uliyat etikasi esa uzoq oqibatlarni (ekologik iz, avlodlararo adolat) bosh mezon qiladi [Jonas, 1984–11].

1.4. Mehnat, psixologik salomatlik va estetik muhit

Ish jarayonining platformalashuvi mikronazorat (monitoring), kvartal-maqsadlar va “o'lchab boshqarish” rejimlarini kuchaytirdi. Vizual interfeyslar va “gamifikatsiya” estetikasi motivatsiya uyg'otsa-da, uzoq muddatda charchoq, diqqat parchalanganligi va o'zini qadrsiz his etishga olib kelishi mumkin. Bu yerda mehnat estetikasining sog'lom dizayni (ergonomika, ritm, vizual soddalik) axloqiy farovonlik bilan chambarchas bog'liq [Sher, 2007–222].

1.5. Ijtimoiy to'qimalar va turmush estetikasining qayta kodlanishi

Uyda “aqli” qurilmalar, kameralar va doimiy optimizatsiya estetikasining kuchayishi oila muhitini ham boshqaruvchi algoritmlarga bo'ysundiradi. Turmush estetikasida qulaylik va nazorat o'rtasida muvozanat kerak [Sher, 2007–225].



2. Estetik-axloqiy integratsiya: nazariy asos

2.1. Axloqiylik va nafislikning qo'shloqligi

Estetika va axloqning "qarindoshligi" – go'zallik orqali ezgulikni tarbiyalash – o'zbek estetika an'analarida muhim mavzu [Sher, 2007–12]. Bu, foydalanuvchi interfeyslarida "faqat chiroy" emas, "axloqiy qulaylik" – tushunarlilik, izohlanish, inkluzivlik –ni ham ko'zlash zaruratini bildiradi.

2.2. "Artefakt siyosati" va dizayn etikasi

Vinnerning g'oyasi dizayn bosqichida "kimlar foyda ko'radi/zarar ko'radi?" savolini markazga qo'yadi [Winner, 1980–121]. Shu sabab, IEEE EAD'dagi inson farovonligi, adolat va hisobdorlik tamoyillari dizayn jarayoniga "qadriyat-xaritasi" sifatida tikilishi lozim [IEEE, 2018–27].

2.3. Axborot etikasi va ma'lumotlar boshqaruvi

Floridi asoslaydigan axboriy integritet – foydalanuvchi ma'lumotlarini minimal yig'ish, maqsadga muvofiqlik, kontekstual ruxsat va tarmoqli shaffoflik – bilan ta'minlanadi [Floridi, 2005–189]. Bu UNESCO tamoyillari (inson huquqlari, xilma-xillik, barqarorlik) bilan uyg'un [UNESCO, 2021–7].

2.4. Mas'uliyat etikasi va ehtiyotkorlik me'yorlari

Yonas prinsipi siyosat va sanoatda "algoritm ishga tushgach emas, oldindan bahola" tartibini talab etadi: xavf tahlili, "qora holatlar" ssenariylari, avlodlararo ta'sir bahosi, ekologik iz [Jonas, 1984–11].

2.5. Inson qarorining ajralmasligi

Vayzenbaumning ogohlantirishi – ayrim qarorlar sohasi "insoniy mulohaza"ni talab qiladi – bugun tibbiy triaj, jinoiy-huquqiy risk baholash, bolalar bilan ishlash kabi kontekstlarda dolzarb [Weizenbaum, 1976–11].

3. Amaliy holatlar va qo'llanma

3.1. "Aqlli shahar"lar

Sensorlar va kamera tarmoqlari mobilitetni yengillashtirsa-da, kuzatuv riskini oshiradi. Shahar dizaynida texnika estetikasiga (vizual shaffoflik, belgilarni tushunarlilik) axloqiy signallar (xabar berish, rozilik mexanizmlari) ulanadi. Bu, Vinner aytganidek, artefakt siyosatini adolat tomonga og'diradi [Winner, 1980–121].

3.2. Ijtimoiy tarmoqlar va diqqat iqtisodi

Interfeys estetikasi (autoplay, cheksiz scroll, mukofot sikllari) Zuboff ta'riflagan "instrumentar kuch"ni kuchaytiradi; foydalanuvchi xatti-harakatini bashorat qilish va shakllantirish rentabellik manbaiga aylanadi [Zuboff, 2019–13]. "Qadriyatga yo'naltirilgan dizayn" bu yerda "default"larni sog'lom tanlovga buradi (pauza, ishlash vaqti limitlari, shaffof tavsiyalar).

3.3. Ish joylari: mehnat estetikasidan mehnat axloqiga

Ish-panel dizaynida minimalizm, yorug'lik-kontrast gigiyenasi, ritmga mos bildirishnomalar, shaxsiy hududni hurmat qiluvchi monitoring siyosatlari mehnat farovonligini oshiradi [Sher, 2007–222].

3.4. Ma'lumotlar siyosati: axboriy integritet

Tashkilot darajasida ma'lumotlar inventarizatsiyasi, maqsadga bog'liq yig'ish, kontekstual ruxsat, algoritmik audit, manfaatdor tomonlar ishtirokiga asoslangan "Data Ethics Board" mexanizmlari Floridi va UNESCO tamoyillarini amaliyotga ko'chiradi [Floridi, 2005–189]; [UNESCO, 2021–7].

4. Integrativ model: "Mas'uliyat–Dizayn–Boshqaruv (MDB) triadasi"

- Mas'uliyat (M) – Yonas prinsipiga tayangan holda, uzoq oqibatlar va avlodlararo adolatni baholovchi ehtiyotkorlik me'yorlari [Jonas, 1984–11].
- Dizayn (D) – Texnika estetikasini axloqiy tamoyillar bilan uyg'unlashtirish: inkluzivlik, tushunarlilik, farovonlik, vizual shaffoflik [Sher, 2007–217]; [IEEE, 2018–27].
- Boshqaruv (B) – Axborot etikasi va xalqaro me'yorlar asosidagi siyosatlar: ma'lumotlar minimallashtirish, audit, hisobdorlik, izohlanish [Floridi, 2005–189]; [UNESCO, 2021–7].



Maqola quyidagi asosiy natijalarni beradi:

- **Normativ karkas:** Mas'uliyat etikasi (Yonas) texnik qarorlar uchun “uzoq oqibat” mezonini markazga qo'yadi; u AI, kuzatuv infratuzilmalari va biotexnologiyada ehtiyotkorlik yondashuvini normativ asoslaydi [Jonas, 1984–11].
- **Siyosatga ta'sir:** “Artefakt siyosati” g'oyasi dizayn bosqichida adolat, inklyuziya va shaffoflikni ex-ante talab sifatida joylashtiradi [Winner, 1980–121].
- **Estetik-axloqiy uzviylik:** Texnika estetikasining tarbiyaviy roli – ishlab chiqarish va turmushda go'zallikni oshirish – mehnat farovonligi va ijtimoiy ishonchni mustahkamlaydi [Sher, 2007–222; 2007–225; 2007–217].
- **Axboriy suverenitet:** Axborot etikasi (Floridi) va UNESCO/IEEE tamoyillari asosida “axboriy integritet” va “hisobdor algoritmlar” institutsional mexanizmlarini joriy etish mumkin [Floridi, 2005–189]; [UNESCO, 2021–7]; [IEEE, 2018–27].
- **MDB triadasi:** Mas'uliyat–Dizayn–Boshqaruv trikotomiyasi siyosat, sanoat va fuqarolik jamiyati choralari uygu'nlashtirish uchun amaliy xarita bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Texnikaviy muhit inson hayotini nafaqat qulaylik va samaradorlikka, balki axloqiy sinovlarga ham duchor etadi. Raqamli platformalar, kuzatuv infratuzilmalari va algoritmlashgan qarorlar kontekstida axloqiylik go'zallikdan uzilmasligi zarur: estetik dizayn va foydalanuvchi tajribasi inson qadr-qimmatini himoya qiluvchi normativ tamoyillar bilan birga rejalashtirilishi lozim. Yonasning mas'uliyat etikasi uzoq oqibatlarni markazga qo'yishni, Vinnerning artefakt siyosati dizaynning siyosiy oqibatlarini tan olishni, Ellulning tashxisi esa “samaradorlik”ni mutlaq qadriyatga aylantirmaslikni uqtiradi. Floridi, Zuboff va xalqaro me'yorlar (UNESCO, IEEE) axboriy integritet, hisobdorlik va farovonlikni ta'minlash yo'lida konseptual va amaliy vositalarni taklif qiladi. O'zbek estetik an'analaridagi texnika estetikasining tarbiyaviy kuchi esa mazkur global tasvirga “ma'naviy did” o'lchamini qo'shadi. Natijada taklif etilgan MDB triadasi – Mas'uliyat, Dizayn, Boshqaruv – yakka shaxsdan tortib, tashkilot va davlat siyosatlarigacha bo'lgan darajalarda qo'llash mumkin bo'lgan amaliy strategiya sifatida e'tirof etiladi [Sher, 2007–217]; [Winner, 1980–121]; [Jonas, 1984–11]; [Ellul, 1964–133]; [Floridi, 2005–189]; [Zuboff, 2019–13]; [IEEE, 2018–27]; [UNESCO, 2021–7].

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ellul, J. (1964). The Technological Society. Vintage Books. (Alohida boblar: “The Autonomy of Technique”).
2. Floridi, L. (2005). “The Ontological Interpretation of Informational Privacy.” Ethics and Information Technology, 7(4), 185–200.
3. IEEE (2018). Ethically Aligned Design: A Vision for Prioritizing Human Well-being with Autonomous and Intelligent Systems (Ver. 2, Candidate Recommendation).
4. Jonas, H. (1984). The Imperative of Responsibility: In Search of an Ethics for the Technological Age. University of Chicago Press.
5. Sher, A. (2007). Nafosat falsafasi. Toshkent: Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi. (Darslik).
6. UNESCO (2021). Recommendation on the Ethics of Artificial Intelligence.
7. Weizenbaum, J. (1976). Computer Power and Human Reason: From Judgment to Calculation. W. H. Freeman.
8. Winner, L. (1980). “Do Artifacts Have Politics?” Daedalus, 109(1), 121–136.
9. Zuboff, S. (2019). The Age of Surveillance Capitalism. PublicAffairs.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.